

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ADABIY VA XALQ ERTAKLARINI O'QITISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Saipova Hilola Abduhamitovna

Inklyuziv ta'lim kafedrası dotsenti

saipovahilola3@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19640468>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida adabiy va xalq ertaklaridan foydalanishning ahamiyati va uning afzalliklari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqolada yangi O'qish savodxonligi darsliklarida berilgan turli xalq ertaklari va adabiy ertak namunalari ham tahlil qilinadi va ularning jarayondagi ahamiyati va afzalliklari, o'quvchilar dunyoqarashi va mantiqiy fikrlashlarini oshirishdagi o'rni haqida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** xalq ertaklari, adabiy ertaklar, dunyoqarash, qadriyat, tarbiya, urf-odat, tasavvur, mustaqil fikrlash.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются важность и преимущества использования литературных и народных сказок на уроках чтения в начальной школе. Также анализируются различные примеры народных и литературных сказок, представленные в новых учебниках по чтению, и высказывается мнение об их важности и преимуществах в этом процессе, а также об их роли в улучшении мировоззрения и логического мышления учащихся.

**Ключевые слова:** народные сказки, литературные сказки, мировоззрение, ценности, образование, традиции, воображение, самостоятельное мышление.

**Abstract.** This article discusses the importance and advantages of using literary and folk tales in primary school reading literacy classes. The article also analyzes various folk tales and literary fairy tale examples given in the new Reading Literacy textbooks and expresses its views on their importance and advantages in the process, their role in improving students' worldview and logical thinking.

**Keywords:** folk tales, literary fairy tales, worldview, values, education, traditions, imagination, independent thinking

**Kirish.** Boshlang'ich sinf davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida, tafakkuri, nutqi va dunyoqarashining rivojlanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, bu davrda o'quvchilarda savodxonlik – ya'ni o'qish, tushunish, ifodali o'qish va fikr bildirish ko'nikmalarini shakllantirish asosiy vazifalardan biri sanaladi. Bu jarayonni mazmunan boyitish, didaktik jihatdan qiziqarli va samarali tashkil etish uchun adabiy va xalq ertaklaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ertaklar – bolalar uchun eng tushunarli, eng sevimli, eng ta'sirchan janrlardan biridir. Ular orqali nafaqat o'quvchilarning savodxonlik ko'nikmalari shakllanadi, balki ularning axloqiy tarbiyasi, ijodiy fikrlash qobiliyati, estetik didi, tasavvuri ham rivojlanadi. Chunki ertaklar o'zining qiziqarli syujeti, obrazlar boyligi, xalqona hikoya tili bilan bolalarni o'ziga tortadi, ularni fikrlashga, xulosa chiqarishga undaydi.

**Asosiy qism.** Xalq ertaklari avloddan avlodga og'zaki tarzda yetkazilgan bo'lib, har bir xalqning tarixiy tajribasi, orzu-umidlari, ijtimoiy qadriyatlari, axloqiy mezonlari unda mujassamdir. Shu sababli ertaklar orqali o'quvchilar ona tili va milliy madaniyat asoslari bilan erta tanishadilar, o'zligini anglay boshlaydilar. O'qish savodxonligi darslarida adabiy va xalq ertaklaridan foydalanish – bu oddiygina matn bilan ishlash emas, balki bolaning butun shaxsiyatiga ta'sir qiluvchi tarbiyaviy vositadir. Bunday darslar bolalarda o'qishga qiziqishni

oshiradi, ularni mustaqil o'qishga, fikr bildirishga, muhokama qilishga o'rgatadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarni keyingi bosqichdagi ta'limga tayyorlaydi.

“Ertakning pedagogik qiymati shundan iboratki, o'quvchilar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar. Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi”.<sup>1</sup>

Jumladan, 2-sinf O'qish savodxonligi darsligida “Och bo'ri” o'zbek xalq ertagi, 4-sinfda esa “Qari bilganni pari bilmas” o'zbek xalq ertaklari o'rganiladi. Xalq ertaklari orqali o'quvchilar xalqimizning urf-odatlarini, qadriyatlarini, oilaviy munosabatlari, kasb-hunarlar haqidagi tasavvurlarni egallaydi. Bu esa ularni milliy ruhda tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Ertaklarda vatan uchun kurash, xalq manfaatini ko'zlash, adolat uchun kurashish kabi motivlar ko'p uchraydi. Bu orqali bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat kabi yuksak tuyg'ular shakllanadi.

Xalq ertaklari bilan bir qatorda adabiy ertaklar ham darsliklardan salmoqli o'rin egallaydi. Xususan, 2-sinfda “Suv va daraxt” (Zamira Ibrohimova), “Olxo'ri va o'rik” (Mirmuhsin), “Qochoq bug'doycha” (Muazzam Ibrohimova) ertaklari, 3-sinfda esa “G'aroyib tanlov” (Feruza Jalilova), 4-sinfda “Mikrob, virus va Salomat qiz haqida ertak” (Kavsar Turdiyeva) kabi adabiy ertak namunalari keltirilgan. Adabiy ertaklarni o'rganishda o'quvchilar nafaqat ertak matni bilan, balki ertak muallifi, uning hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarga ham ega bo'lib boradilar.

Boshlang'ich sinflarda hayvonlar haqidagi ertaklar ko'proq o'qitiladi. Jumladan, ikkinchi va to'rtinchi sinf O'qish savodxonligi darslarida “O'rmonadgi ziyofat” (Anvar Obidjon), “Qarg'a va paxta” (Nasiba Erxonova) kabi ertaklar aniq hayotiy hikoyalar tarzida o'qitiladi va tahlil qilinadi. Ertak matni ustida ishlashda tanlab o'qish, savollarga javob berish, o'quvchilarning o'zlari ertak mazmuniga oid savollar tuzib, javob berishlari, reja tuzish, qayta hikoyalash, ijodiy davom ettirish, ertak aytish, qahramonlarni grafik tasvirlash kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bunday ertaklarda hayvonlarning odatlari tahlil qilinadi, ammo ularni kishilar xarakteriga taqqoslash tavsiya qilinmaydi.

**Xulosa.** Boshlang'ich ta'limda xalq va adabiy ertaklar bebaho manba, samarali tarbiya vositasi sifatida o'z o'rniga ega. Ertaklar bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularni yaxshilikka, rostgo'ylikka, sabr-toqatga, mehnatsevarlik va odobga o'rgatadi. Xalq ertaklari orqali yosh avlod milliy madaniyat va ma'naviyat bilan tanishadi, o'z xalqining boy merosini o'rganadi. Shu bilan birga, xalq ertaklari bolalarga sodda, ammo chuqur hayotiy saboq beradi, ularni ijtimoiy rollarni tushunishga, to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatadi.

Adabiy ertaklar esa mualliflik uslubi, badiiy ifodaning boyligi va obrazlar xilma-xilligi bilan bolalar tasavvurini yanada kengaytiradi, ularda badiiy didni, tahliliy tafakkurni, hissiy sezuvchanlikni rivojlantiradi. Bu turdagi ertaklar o'quvchilarda kitobxonlik madaniyati va estetik tafakkurni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli xalq va adabiy ertaklardan boshlang'ich ta'lim jarayonida foydalanish – bu nafaqat o'quvchilarning savodxonligini mustahkamlash, balki ularni har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalashning muhim

<sup>1</sup> K.Qosimova Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent, 2009.- 105-b.

omilidir. Dars jarayonida ertaklarga asoslangan metodik yondashuvlar – dramalashtirish, rolli o‘yinlar, ertakni davom ettirish, bahs-munozara kabilar o‘quvchilarni faol fikrlovchi, ongli, ma’naviyatli shaxs etib shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogika oldida turgan asosiy vazifa – nafaqat bilim berish, balki shaxsni tarbiyalashdir. Shu ma’noda xalq va adabiy ertaklar maktab darsliklarida, sinfdan tashqari o‘qishlarda va tarbiyaviy tadbirlarda keng qo‘llanilishi lozim.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva, Sh.Sariyev. “Ona tili o‘qitish metodikasi” Toshkent 2009.
2. S.Matchonov, X.G‘ulomova, M.Suyunov, H.Boqiyeva “Boshlag‘ich sinflarda o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish”. Toshkent Yangiyo‘l poligraf servis, 2008. –224-bet.
3. 1-sinf O‘qish savodxonligi darsligi I-II qismlar D.Sh.Yuldasheva Novda. Toshkent 2023-yil.
4. 2-sinf O‘qish savodxonligi darsligi I-IV qismlar S.D.Kuranov Novda. Toshkent 2023-yil.
5. 3-sinf O‘qish savodxonligi darsligi I-IV qismlar U.B.Aydarova, N.K.Azizova, M.E.Toirova. Novda Toshkent 2023-yil.
6. 4-sinf O‘qish savodxonligi darsligi I-IV qismlar M.E.Toirova Novda. Toshkent 2023-yil.
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
8. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
9. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)
10. <file:///C:/Users/user/Downloads/bolalar-tarbiyasida-ertakning-o-rni.pdf>